

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-4.02

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**DAVLAT BYuDJETI
fanidan
DASTUR**

Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"

ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"

bakalavriat yo'nalishi uchun

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Jamolov X.,
k.o'q. Nurmuxammedova B.,
dots. Maxamatxonova Z.

Taqrizchilar: dots. Haydarov N.,
dots. Jumaev N.

Mazkur dastur davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari, davlat byudjet siyosatining xususiyatlari, byudjetlararo munosabatlarning asosiy shakllari, byudjetdan moliyalashtirish masalalarini qamrab olgan bo'lib, oliy ta'limning "Biznes va boshqaruv" sohasi bo'yicha bakalavriatning "Moliya" , "Soliq va soliqqa tortish" yo'nalishlaridagi talabalarga mo'ljallab tuzilgan. Unda iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida O'zbekiston Respublikasi hozirgi zamon byudjet amaliyotining dolzarb masalalari yoritilgan bo'lib, ular ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim mavzularida o'z aksini topgan. Mazkur dastur davlat byudjeti bo'yicha zaruriy, nazariy bilimlarni shakllantirishga va amaliy ko'nikmalarini hosil qilishga mo'ljallangan.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Данная программа включает в себя сущность, функции, особенности бюджетной политики государства, основные формы межбюджетных отношений и предназначена для студентов бакалавриата направлений "Финансы", "Налоги и налогообложение" сферы "Бизнес и управление". В программе освещены вопросы современной бюджетной практики Республики Узбекистан, которые отражены лекционных, в содержании практических (семинарских) занятий и тем для самообразования. В программе приведены списки литератур на узбекском, русском и английском языках, к концу которых приложена перечень сайтов интернета и компьютерных учебных программ по соответствующим темам курса.

The aim of given program is to provide necessary knowledge to students of economic high schools.

The specialists working on Public Finance system use these questions.

In the terms of economic liberalization many great changes took place in our Budget System. Created new mechanisms of Budget formation and changing the ways of budget expenditure. All these require high qualified experts in Public Budget sphere. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning State Budget.

The rate of given lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with Public Finance.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Davlat byudjeti" fanini o'qitishdan maqsad – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi xaqida nazariy bilimlar berish, ularda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlatning moliya va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- byudjet qurilishi va byudjet tizimini o'rganish;
- byudjet tizimini boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish;
- davlat byudjeti daromadlari tizimini va uning manbalarini o'rganish;
- davlat byudjeti xarajatlari tarkibini o'rganish;
- byudjet jarayoni va byudjet istiqbolini belgilash asoslarini o'rganish;
- byudjet taqchilligining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni pasaytirish imkoniyatlarini yoritish;
- iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlatning moliyaviy va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rganish va h.k.

"Davlat byudjeti" fani "Moliya", "Iqtisodiy nazariya", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga "Davlat byudjeti" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Nobyudjet fondlar", "Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlar" kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquv va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda byudjet-moliyaviy qonunchilik, sohasidagi yangiliklardan, ommaviy-axborot vositalari orqali mamlakat miqyosidagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar byudjet amaliyotida mavjud iqtisodiy tahlil hamda byudjetni rejalashtirish usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Davlat byudjeti" fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, byudjet amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda davlat moliyasi muammolariga doir adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Talabalar ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar bo'yicha tegishli mavzularda konspektlar oladilar, referat va mustaqil ishlar tayyorlaydilar hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhatdan o'tadilar. Amaliy mashg'ulotlar mavzularidan kursiv bilan ko'rsatilganlarini talabalar mustaqil ravishda to'liq o'zlashtirishlari kerak.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur fanga jami bo'lib 333, shu jumladan 120 - ma'ruza, 102 - amaliy va 161 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish VI-VII-VIII o'quv semestrlariga mo'ljallangan.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholash davomida yiqqan ballari asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishning xar bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning asoslarini quyidagilar isbotlaydi:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasi ko'zda tutilganligi;

- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilishi;
- muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirish asoslaridan foydalanilishi;
- tayanch iboralarga asoslangan yozma ish orqali nazorat ishlarini o'tkazish tizimidan foydalanilishi.

Bu fanni o'qitishda moliya-byudjet amaliyotiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, Moliya Vazirligi yo'riqnomalari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar, byudjetni rejalashtirishning va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projest expert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dastur tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Moliya", "Soliq va soliqqa tortish" "Kasb ta'limi" bakalavr ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislariga tegishli tarzda 6,7,8-semestrlarda o'tilishi mo'ljallangan.

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlari tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Ishchi dasturda fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlari uchun tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur.
- Ishchi dasturda har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda tegishli moliyaviy qonunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini jalb etadigan tarzda berilishi kerak.
- Ishchi dasturda mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratilib ko'rsatilishi zarur.
- Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar xam yoritilishi lozim.

2. FAN DASTURI

"Davlat byudjeti" fani bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar mavzulari:

Fanning predmeti va mazmuni

Davlat byudjeti haqidagi fanning iqtisodiy fanlar tizimidagi o'ri. Fanning predmeti, vazifalari. *Moliya, soliq va boshqa sohalarda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashda fanning ahamiyati.*

Davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Davlat byudjeti – iqtisodiy kategoriya sifatida. *Davlat byudjetining umumiy moliya munosabatlari tarkibidagi o'ri va ahamiyati. Davlat byudjetining moliya tizimida tutgan o'ri, uning moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan munosabati. Davlat byudjeti orqali yalpi ichki maxsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.*

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining rivojlanishi tarixi

O'zbekiston Respublikasida byudjet munosabatlarining shakllanishi. Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonliklari umumdavlat moliyasi. Xonliklardagi soliqlar, ularning turlari. Sobiq Ittifoq davridagi O'zbekiston Respublikasi byudjeti, uning rivojlanishi, daromad va xarajatlari, ittifoq byudjeti bilan munosabatlari. Mustaqil O'zbekiston Davlat byudjetining tuzilishi: muammo va echimlar.

Davlat byudjetining rivojlanish strategiyasi va byudjet siyosati

Davlat byudjeti - davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish quroli. *Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi.* Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari. Iqtisodiyotni jonlantirish va rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda mamlakatni madaniy yuksaltirishga qaratilgan byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Byudjet tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi byudjeti tuzilishi asoslari. Byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari. *Byudjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash asoslari.* Byudjet huquqlari: uning ob'ekti, sub'ektlari, byudjet huquqlari me'yorlari. 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunning byudjet tuzilishini isloh qilishdagi ahamiyati.

Byudjet taqchilligi

Davlat byudjeti taqchilligi tushunchasi. Taqchillikning kelib chiqish sabablari. Taqchillikning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri. *Taqchillikni boshqarish. Byudjet taqchilligi haqidagi hozirgi zamonaviy kontseptsiyalari.*

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida respublika byudjetining o'ri

Davlat ahamiyatidagi tadbirlarni amalga oshirish va davlat mablag'larini markazlashtirishda respublika byudjetining ahamiyati. Respublika byudjetining daromad va xarajatlari tarkibi. Umumdavlat soliqlarining respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi roli. *Byudjetlararo munosabatlarda respublika byudjetining tutgan o'rni.*

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari byudjeti

Mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlari tarkibi. *Byudjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash shartlari va usullari.* Mahalliy byudjetlar daromadlarining hududiy iqtisodiyotning holatiga bog'liqligi. Byudjet potentsiali to'g'risida tushuncha. Mahalliy byudjetlarning barqaror daromad bazasini yaratish masalalari.

Byudjet tizimini boshqarish organlari, ularning funktsiyalari

Byudjet tizimini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish sub'ektlari, ularni asosiy vazifalari. Moliya vazirligining asosiy vazifalari, funktsiyalari, huquq va majburiyatlari.

Byudjet tasnifi

Byudjet tasnifi tushunchasining zaruriyati, mohiyati va ahamiyati. Byudjet tasnifining turlari: byudjet daromadlari tasnifi, ularning turlari. Byudjet taqchilligini moliyalash manbalari tasnifi. Byudjet tasnifining takomillashuvi. *O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar byudjet tasniflari bilan qiyoslash.*

Byudjet daromadlari

Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishi, ularning o'zagarish tahlili. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati. Daromadlarning byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi. *Byudjetni barqaror daromad bilan ta'minlashning bugungi kundagi muammolari.*

Davlat byudjetining solikli daromadlari

Davlat byudjetining solikli daromadlari, ularning tarkibi va iqtisodiy ahamiyati. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, ularning turlari, davlat byudjeti uchun ahamiyati. *O'zbekiston Respublikasi soliq mexanizmi, uning yangi sharoitdagi takomillashuvi.*

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibi va tuzilishi. Respublika byudjetining soliqsiz daromadlari: davlat mulkini xususiy lashtirishdan daromadlar, davlat qimmatli

qog'ozlaridan olinadigan daromadlar, xalqaro aloqalardan tushumlar, davlat zayomlari hamda boshqa qimmatli qog'ozlarni ichki va xalqaro moliya bozorida joylashtirishdan tushadigan daromadlar. Mahalliy byudjetlarning soliqsiz daromadlari. *Mahalliy yig'implar.*

Davlat byudjeti xarajatlari tizimi

Davlat byudjeti xarajatlarning davlat funksiyalari bilan bog'liqligi. Byudjet xarajatlarning tarkibi va tuzilishi. Bozor iqtisodiyotining bugungi bosqichida iqtisodiyot xarajatlari tarkibining o'zgarishi. Byudjetning ijtimoiy sohalarini saqlash va ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlari. Byudjetning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlash xarajatlari, ularni qisqartirish masalalari. *Davlat byudjetining mamlakat mudofaa tizimini saqlash hamda rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlari, bu sohadagi islohotlar va byudjet.*

Davlat byudjetining moddiy ishlab chiqarish sohalari xarajatlari

Byudjetdan sanoat tarmoqlarini moliyalashtirishning xususiyatlari. Byudjetning markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari. *Xususiyashtirish va davlat tasarruffidan chiqarish jarayonlarining jadallashuvi sharoitida iqtisodiyot xarajatlari tarkibining o'zgarishi.*

Davlat byudjetining noishlab chiqarish sohalari xarajatlari

Noishlab chiqarish xarajatlarning bir qismini byudjetdan moliyalashtirish zaruriyati. Xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, davlat hokimiyati va boshqaruvi, mamlakat mudofaasi xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida va noishlab chiqarish sohasidagi islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida byudjetning ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi va tuzilishining o'zgarishi.*

Byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida moliyalashtirish

Xarajatlar smetasi, uning elementlari. Smetaning turlari: yakka, umumlashtirilgan va yig'ma smetalar. *Smeta tuzish xususiyatlari.* Byudjet me'yorlari, ulardan smeta moddalar hisob-kitobida foydalanish. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirish uchun qabul qilish tartibi.

Davlat byudjetidan xalq ta'limi va kadrlar tayyorlash xarajatlarini moliyalashtirish

Uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi, uning bosqichlari. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunining amalga

oshirilishida byudjetning ahamiyati. Xalq ta'limi va kadrlar tayyorlash xarajatlarining respublika byudjeti va mahalliy byudjetdan amalga oshirilishi. Maktab-internatlar va maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Ta'lim tizimi xarajatlarini yig'ma rejalashtirish. Maktabdan tashqari tashkilotlar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.* Akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari xarajatlari, ularni rejalashtirish va moliyalashtirish xususiyatlari. Hozirgi kunda akademik litseylar va kasb-hunarkollejlarining moliyaviy ta'minot yaxshilash masalalari. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning samaradorligini oshirishda byudjetning roli.

Byudjetning madaniyat xarajatlari

Byudjetning madaniy-oqartuv muassasalari hamda madaniy tadbir xarajatlari, ularni rejalashtirish va moliyalashtirish. *Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida madaniyat sohasi muassasa va tashkilotlarini moliyalashtirishdagi o'zgarishlar.* Madaniyat xarajatlarini moliyalashtirishda respublika byudjeti hamda mahalliy byudjetlarning roli va ishtiroki.

Sog'liqni saqlash xarajatlari

Sog'liqni saqlash xarajatlarini moliyalashtirish manbalari. Xarajatlarni hisoblashdagi asosiy ko'rsatkichlar. Tibbiy xodimlar ish xaqini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Aholini sog'lomlashtirish xarajatlarini hisoblash. Sog'liqni saqlash xarajatalarining yig'ma smetasi. *Bozor iqtisodiyotining bugungi bosqichida sog'liqni saqlash xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishdagi o'zgarishlar. Sog'liqni saqlash sohasini isloh qilishning 1998-2005 yillarga mo'ljallangan "Davlat dasturi"ni amalga oshirishda davlat malag'larining ahamiyati.*

Ijtimoiy ta'minot xarajatlarini moliyalashtirish

Davlat byudjetining ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibi. Ijtimoiy ta'minot tadbirlarini, ijtimoiy ta'minot muassasa va tashkilotlari xarajatlarini, pensiya va nafaqa xarajatlarini rejalashtirish hamda moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, uning daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish. O'zbekiston Respublikasining "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunida "Pensiya fondi"ning tuzilishi, uning ijtimoiy ta'minotni yaxshilashdagi ahamiyati Davlat byudjetining pensiya fondi bilan munosabatlari.*

Byudjetning ijtimoiy himoya xarajatlari

Aholini ijtimoiy himoya qilishning davlat tomonidan kafolatlanganligi. Aholining ijtimoiy himoya xarajatlari turlari: tovarlar va xizmatlar baholari hamda tariflari o'rtasidagi farqni qoplash; bolali onalarga nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga

nafaqalar. Ijtimoiy himoyani tashkiliy-huquqiy va moliyaviy ta'minlash. *"Mahalla" fondining tashkil etilishi va uning aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishdagi ahamiyati. "Mahalla" fondining davlat byudjeti bilan munosabati.*

Davlat byudjetning boshqa xarajatlari

Davlat byudjetining boshqa xarajatlari tarkibi. Byudjetning xarajatlar tasnifiga muvofiq boshqa xarajatlar turlari. Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etish xarajatlari. Referendum va saylovlar o'tkazish, davlat mukofotlarini to'lash, pul-buyum lotereyalarini o'tkazish bo'yicha xarajatlar, ularning respublika byudjetidan moliyalashtirilishi. Harbiy xizmatchilar, bojxona idoralari xodimlarini pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash xarajatlari. *Mudofaa majmui, huquqni himoya qilish organlari xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirish, bu xarajatlarning respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi asoslari. Byudjet tarkibida kafolatli jamg'armaning tuzilishi, uning zaruriyati va ahamiyati.*

Byudjet istiqbolini belgilash asoslari

Byudjet istiqbolini belgilashning mazmuni, vazifalari. Va ahamiyati. Iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasi hamda nobozor sektorining mavjudligi, zaruriyati va ahamiyati. *Noishlab chiqarish sohasi va nobozor sektori tashkilotlari hamda muassasalari moliyaviy ta'minlanishining xususiyatlari.* Byudjet mablag'lariga egalik qiluvchilar, ularning guruhlanishi. *Byudjet tashkilotlarini smetali moliyalashtirish tartibi.* Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari. Moliya organlarining byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash, smeta asosida moliyalashtirish va mablag'lardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy nazorat ishlar: smeta va shtatlar jadvalining to'g'riligini tekshirish, tasdiqlash, moliyalashtiruvchi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirishni ochish, mablag'larning ishlatilishini nazorat qilish, hisobotlar qabul qilish va umumlashtirish. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalarining shakllanishi, mablag'larning ishlatilishi yuzasidan iqtisodiy nazorat ishlarni tashkil qilish.

Byudjet jarayoni va uning bosqichlari

Byudjet jarayoni bosqichlari: byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, byudjetni ijro etish, byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlarni tuzish va tasdiqlash, byudjet jarayonining barcha bosqichlarini nazorat qilish. Byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash, uni amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari hamda vazifalari. Tasdiqlangan byudjetning byudjet mablag'larini oluvchilarga etkazilishi. Byudjetni ijro etish: uning vazifalari, byudjet ijrosini ta'minlovchi organlar. Byudjetning kassa ijrosi to'g'risida tushuncha. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlar tuzish, ularning ko'rib chiqilishi va

tasdiqlanishi. *Byudjet jarayoni bosqichlarini nazorat qilish, nazoratning vazifalari. Nazorat organlari, ularning huquq va majburiyatlari, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishda byudjet nazoratining ahamiyati.*

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH(LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

Fanning predmeti va mazmuni

Fanning predmeti, vazifalari, tarkibi va tuzilishi*. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi. Moliya, soliq va boshqa sohalarda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda fanning ahamiyati.

Davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Davlat byudjetining umumiy moliya munosabatlari tarkibidagi o'rni va ahamiyati. Byudjetning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan munosabati*. Iqtisodiy qonunlarning byudjet kategoriyasi orqali amalga oshishi*. Davlat byudjetining taqsimlash va nazorat funksiyalari*. Byudjet nazorati – byudjetning nazorat funksiyasining amalda namoyon bo'lish shakli.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining rivojlanishi tarixi

Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonliklari umumdavlat moliyasi*. Xonliklarning daromadlari va xarajatlari. Soliq og'irligi. Xarajatlarning tarkibi va yo'nalishlari. Sobiq Ittifoq davridagi O'zbekiston Respublikasi byudjeti, uning rivojlanishi, daromad va xarajatlari, ittifoq byudjeti bilan munosabatlari. Mustaqil O'zbekiston Davlat byudjetining tuzilishi: muammo va echimlar.

Davlat byudjetining rivojlanish strategiyasi va byudjet siyosati

Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyotni moliyaviy sog'lomlashtirishda byudjetning ahamiyati*. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari*.

Byudjet tuzilishi

Byudjet tizimining tuzilish tamoyillari*. Byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari*. Byudjet huquqlari: uning ob'ekti, sub'ektlari, byudjet huquqlari me'yorlari. Mahalliy hukumat organlarining byudjet huquqlari. Mahalliy

hukumat organlari byudjet huquqlarining kengayishi. 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunning byudjet tuzilishini isloh qilishdagi ahamiyati.

Byudjet taqchilligi

Davlat byudjeti taqchilligi tushunchasi*. Aktiv va passiv taqchillik*. Taqchillikning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri. Taqchillikni bartaraf etish (qisqartirish) zaruriyati. Taqchillikni moliyalashtirish tushunchasi. Taqchillikni moliyalashtirish manbalari: noinflyatsion va inflyatsiyaga olib keluvchi manbalar.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida respublika byudjetining o'rni

Respublika byudjeti - O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining markaziy bo'g'ini sifatida*. Respublika byudjetining daromad va xarajatlari tarkibi. Umumdavlat soliqlarining respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi roli*. Respublika byudjetining viloyat, shahar va boshqa mahalliy byudjetlar bilan munosabati. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida respublika byudjeti daromad va xarajatlari tarkibining o'zgarishi.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari byudjeti

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari byudjeti, ularning byudjet tizimidagi tutgan o'rni*. Mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlari tarkibi*. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlar. Byudjet potentsiali to'g'risida tushuncha. Byudjet potentsialiga ta'sir etuvchi omillar. Byudjet sohasidagi islohotlarning hozirgi bosqichida mahalliy byudjetlar harajat yo'nalishlarining o'zgarishi.

Byudjet tizimini boshqarish organlari, ularning funktsiyalari

Byudjet tizimini umumiy va operativ boshqarish*. Rivojlanishning turli davrlarida boshqarish organlarining o'zgarishi. Moliya Vazirligi – byudjet tizimini boshqarishning asosiy sub'ekti sifatida. Moliya Vazirligi tizimi, uning bo'g'inlari, byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari.

Byudjet tasnifi

Byudjet tasnifining turlari: byudjet daromadlari tasnifi, ularning turlari. Xarajatlar tasnifi: xarajatlarning funktsional tasnifi; tashkiliy idoraviy tasnifi; iqtisodiy tasnifi. Byudjet tasnifining takomillashuvi*. O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar byudjet tasniflari bilan qiyoslash.

Byudjet daromadlari

Byudjet daromadlari manbai va ularni shakllantirishning moliyaviy usullari*. Ichki va tashqi manbalar. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati. Byudjetning soliqsiz daromadlari. Byudjetni barqaror daromad bilan ta'minlash muammolari.

Davlat byudjetining solikli daromadlari

To'g'ri va egri soliqlar, ularning iqtisodiy mazmuni, daromadlarni shakllantirishdagi ahamiyati*. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, ularning turlari, davlat byudjeti uchun ahamiyati*. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, ularning turlari, daromatlarda tutgan o'rni.

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibi va tuzilishi*. Bojlar*. Mahalliy yig'implar. Soliqsiz daromadlarni undirish yuzasidan mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari.

Davlat byudjeti xarajatlari tizimi

Davlat byudjeti xarajatlarining davlat funktsiyalari bilan bog'liqligi*. Davlat byudjetining iqtisodiyot tarmoqlariga xarajatlari*. Bozor iqtisodiyotining bugungi bosqichida iqtisodiyot xarajatlari tarkibining o'zgarishi*. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat byudjeti xarajatlarining ahamiyati. Davlat byudjetining mamlakat mudofaa tizimini saqlash hamda rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlari, bu sohadagi islohotlar va byudjet.

Davlat byudjetining moddiy ishlab chiqarish sohalari xarajatlari

Byudjetdan sanoat tarmoqlarini moliyalashtirishning xususiyatlari*. Byudjetning joriy va kapital xarajatlari, ularning turlari*.

Davlat byudjetining noishlab chiqarish sohalari xarajatlari

Noishlab chiqarish sohasi xizmatlarining xususiyatlari, ular moliyalashtirish manbalarining kengayishi*. Xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, davlat hokimiyati va boshqaruvi, mamlakat mudofaasi xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari*.

Byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida moliyalashtirish

Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlarining asosiy moliyaviy rejasi sifatida*. Smetaning turlari: yakka, umumlashtirilgan va yig'ma smetalar. Smetalarning tarkibi. Xarajatlar smetasi, xarajatlar guruhleri va moddalari, ular hisob-kitobining smeta

ilovalarida aks ettirilishi*. Byudjet me'yorlari, ulardan smeta moddalarining hisob-kitobida foydalanish*. Direktiv va fakultativ me'yorlar, moddiy va moliyaviy me'yorlar, doimiy va vaqtinchalik me'yorlar.

Davlat byudjetidan xalq ta'limi va kadrlar tayyorlash xarajatlarini moliyalashtirish

Maorif xarajatlari tarkibi, umumta'lim tadbirlarini amalga oshirishda byudjetning roli*. Umumta'lim maktablari va kuni uzaytirilgan maktablar xarajatlarini rejalashtirish*. Maktab-internatlar va maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Ta'lim tizimi xarajatlarini yig'ma rejalashtirish. Maktabdan tashqari tashkilotlar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.* Xalq ta'limi va kadrlar tayyorlash xarajatlarini moliyalashtirishda byudjet mablag'laridan foydalanish. Xarajatlarni byudjetdan moliyalashtirishdagi byudjet nazorati. Oliy o'quv yurtlarining daromad va xarajatlari tarkibi. Bugungi kunda ular daromad manbalarining kengayishi va xarajatlar yo'nalishlarining o'zgarishi. Oliy o'quv yurtlarining xarajatlar smetasi hamda daromad va xarajatlar smetasi, ularning farqi. *Oliy o'quv yurtining boshqa xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.* Oliy ta'lim tizimining moliyaviy ta'minlanishida byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish masalalari.

Byudjetning madaniyat xarajatlari

San'at, televidenie, radio, matbuot xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Madaniyat xarajatlarini moliyalashtirishda respublika byudjeti hamda mahalliy byudjetlarning roli va ishtiroki.

Sog'liqni saqlash xarajatlari

Sog'liqni saqlash xarajatlari tarkibi, ularni rejalashtirish va moliyalashtirish tartibi. Sog'liqni saqlash muassasalari va tashkilotlari turlari. Kasalxona xarajatlari smetasini tuzish. Tibbiy xodimlar ish xaqini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari. Poliklinika, ambulatoriya xarajatlari smetasini hisoblash. Sog'liqni saqlash xarajatalarining yig'ma smetasi. Tibbiyot sug'urtasi, uning mohiyati va soha xarajatlarini moliyalashtirishdagi ahamiyati.

Ijtimoiy ta'minot xarajatlarini moliyalashtirish

Ijtimoiy ta'minot tadbirlarini, ijtimoiy ta'minot muassasa va tashkilotlari xarajatlarini, pensiya va nafaqa xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari*. O'zbekiston Respublikasining "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunida "Pensiya fondi"ning tuzilishi, uning ijtimoiy ta'minotni yaxshilashdagi ahamiyati Davlat byudjetining pensiya fondi bilan munosabatlari.

Byudjetning ijtimoiy himoya xarajatlari

Aholining ijtimoiy himoya xarajatlari turlari: tovarlar va xizmatlar baholari va tariflari o'rtasidagi farqni qoplash; bolali onalarga nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar*. Ijtimoiy himoyaning aniq manzilli bo'lishini ta'minlash masalalari. "Mahalla" fondining tashkil etilishi va uning aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishdagi ahamiyati.

Davlat byudjetning boshqa xarajatlari

Davlat byudjetining boshqa xarajatlari tarkibi*. Referendum va saylovlar o'tkazish, davlat mukofotlarini to'lash, pul-buyum lotereyalarini o'tkazish bo'yicha xarajatlar, ularning respublika byudjetidan moliyalashtirilishi*. Xarbiy xizmatchilar, bojxona idoralari xodimlarini pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash xarajatlari. Davlat qarzig'a xizmat qilish xarajatlari, ularni boshqarish. *Byudjet tarkibida kafolatli jamg'armaning tuzilishi, uning zaruriyati va ahamiyati.*

Byudjet istiqbolini belgilash asoslari

Byudjet istiqbolini belgilashning ahamiyati, mazmuni va vazifalari*. Noishlab chiqarish sohasi va nobozor sektori tashkilotlari va muassasalari moliyaviy ta'minlanishining xususiyatlari. Byudjet tashkilotlari to'g'risida tushuncha*. Byudjet mablag'lariga egalik qiluvchilar, ularning guruhlanishi. Shtatlar jadvali, uning tuzilishi*. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari. Moliya organlarining byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash, smeta asosida moliyalashtirish va mablag'lardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy nazorat ishlar: smeta va shtatlar jadvalining to'g'riligini tekshirish, tasdiqlash, moliyalashtiruvchi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirishni ochish, mablag'larning ishlatilishini nazorat qilish, hisobotlar qabul qilish va umumlashtirish*. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalarining shakllanishi, mablag'larning ishlatilishi yuzasidan iqtisodiy nazorat ishlarini tashkil qilish.

Byudjet jarayoni va uning bosqichlari

Byudjet jarayoni to'g'risida tushuncha, uning bosqichlari. Byudjetni tuzish: byudjet so'rovi, byudjet loyixasini tayyorlash, byudjetnoma va uning mazmuni*. Byudjetni tasdiqlash. Davlat byudjetining qonun kuchiga kirishi*. Byudjetni ijro etish: uning vazifalari, byudjet ijrosini ta'minlovchi organlar. Byudjetning kassa ijrosi to'g'risida tushuncha. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlar tuzish, ularning ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi. Nazorat organlari, ularning huquq va majburiyatlari, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishda byudjet nazoratining ahamiyati.

O'quv rejasiga asosan, bakalavriatning "Moliya" yo'nalishi kunduzgi bo'lim talabalari 4-bosqichda va sirtqi bo'lim talabalari 5-bosqichda "Davlat byudjeti" fani bo'yicha kurs ishi topshiradilar.

Kurs ishlari namunaviy mavzulari:

1. Davlat byudjetining mohiyati va ahamiyati.
2. Davlat byudjeti - asosiy moliyaviy reja.
3. Davlat byudjetining funktsiyalari va ularning hozirgi zamon xususiyatlari.
4. Davlat byudjeti va davlatning moliyaviy siyosati.
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjeti.
6. Davlat byudjeti daromadlari tizimi.
7. Davlat byudjeti xarajatlari tizimi.
8. Davlat byudjeti taqchilligi va uni boshqarish.
9. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi.
10. Byudjet tasnifining mohiyati va hozirgi zamon xususiyatlari.
11. Mahalliy byudjetlarning byudjet huquqlari va majburiyatlari.
12. Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash.
13. Byudjet tizimini boshqarish muammolari.
14. Davlat byudjetining iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish xarajatlari.
15. Davlat byudjetining obodonchilik xarajatlari.
16. Uy-joy, kommunal xo'jaligi xarajatlarini moliyalashtirish.
17. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari va ularni moliyalashtirish xususiyatlari.
18. Xalq ta'limi xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
19. Maktab xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
20. Kollej xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
21. Litsey xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
22. Oliy o'quv yurtlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
23. Maktabdan tashqari muassasalar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
24. Davlat byudjetining madaniyat xarajatlari.
25. Madaniy-oqartuv tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish.
26. Sog'liqni saqlash muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
27. Kasalxona xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
28. Poliklinika xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
29. Byudjetning sport va jismoniy tarbiya xarajatlari.
30. Byudjetning aholini ijtimoiy himoya xarajatlari.
31. Xokimiyat organlari xarajatlarini rejalashtirish.

32. O'zbekiston Respublikasida byudjetni rejalashtirish.
33. Ta'lim tizimini xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
34. Sog'liqni saqlash tizimini rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonida moliyaviy nazorat.
35. Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
36. Maktabdan tashqari muassasalar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
37. Byudjetning bajarilishi.
38. Byudjetning bajarilishi jarayonida moliya bo'limlarini nazorat qilish.
39. Vazirlikdagi moliya bo'limlarini vazifalari.
40. Mahalliy moliya bo'limlarining vazifalari.
41. Mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlarini tartibga solish.
42. Byudjet xarajatlarini moliyalashtirishda soliqlarning o'rni va ahamiyati.
43. Mahalliy byudjet daromadlarining shakllantirishda mahalliy soliq va yig'implarning o'rni.
44. Mahalliy byudjet xarajatlari.
45. Atrof-muhitni himoyalashda moliyaviy muammolar.
46. Byudjetning boshqaruv xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
47. Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan tashqari jamg'armalar ahamiyati.
48. O'zbekistonda byudjet va byudjet munosabatlarining rivojlanish tarixi.
49. O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjetining tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha daromad va xarajatlari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tahlillar, prognozli ko'rsatgichlar diagrammalar personal kompyuterda, elektron jadvallarda Excel 7,0 paketi bilan ishlash orqali yorqin namoyon etilishi mumkin.

Shu bilan birga talabalar "Pravo" tizimi orqali moliyaviy qonunchilik yangiliklaridan xabardor bo'lishlari va o'qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

Case Studies: O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti makroiqtisodiy tahlili va byudjetni rejalashtirish amaliyotiga doir o'quv misollari (rus tilida) Moliya Vazirligi xomiyligida "Byudjet-soliq siyosati" Markazi tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: www.google.ru (Rossiya Federatsiya menejment va bozor akademiyasi "Moliya menejmenti ilmiy tadqiqot instituti" dasturlari (mualliflar

rahbari akad. E.Stoyanova)); www.yandex.ru; www.rambler.ru; www.worldbank.org.ru; www.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistik to'plamlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisod va statistika vazirligi. -T. : 2000, 2001, 2002y.y.
2. O'zbekistonning iqtisodiy yo'nalishlari. TESIS. 1999, 2000, 2001y.y.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Davlat byudjetining ijrosi yuzasidan yillik hisobotlari. -T.: 1999, 2000, 2001, 2002y.y.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabani o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozish;
- ilmiy tezislar tayyorlash;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch tushunchalariga asoslangan "Yozma ish" usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";
- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2003 yilda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjetining parametrlari to'g'risida"gi 455-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2001.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2002.
7. Akramov E.A., Tairov A.E. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy islohotlari. - M.: TOO "Lyuks-art", 1998.
8. Abramova A.M., Aleksandrova L.S. Finansi, deneznoe obrashchenie i kredit: Uchebnoe posobie. -M.: 1999.
9. Avdokushin E.F. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Ucheb. pos. -M.: 2001.
10. Bocharov V.V. Investitsionniy menedjment: regionalniy aspekt – SPb.: Piter, 2000.
11. Vaxobov A.V., Jamolov X.N. Soglasovanie mejbyudjetnix otnosheniy. Uch. pos. -T.: Moliya, 2002.
12. Dj. K. Van. Xorn. Osnovi upravleniya finansami. Pod red. Prof. Sokolova Ya.V., -M.: Finansi i statistika, 1996.
13. Dj. Menvil Xarris. Mejdunarodnie finansi. -M.: 1996.
14. Drobozina L.A. Obshchaya teoriya finansov. -M.: Banki i birji, 1999.
15. Ershov M.V. Valyutno-finansovye mexanizmi v sovremennom mire. - M.: OAO MPO, 2001.
16. Zaripova I.R., Xafizova V.R. Istoriya razvitiya i sovremennoe sostoyanie mejbyudjetnix otnosheniy v Rossii. -Ufa: GP "Print", 2001.
17. Zaripova I.R., Xafizova V.R. Balans finansovix resursov territorii. –Ufa: GP "Print", 2001.
18. Ivanova M.V. Finansi i razvitie malix gorodov Kolskogo Severa. – 2-izd. -Apatiti: IEP KNTs RAN, 2001.
19. Karavaeva I.V. Nalogovoe regulirovanie rinochnoy ekonomiki: Uchebnoe posobie dlya VUZov. –M.: YuNITI-DANA, 2000.

20. Kovaleva A.M. Finansi. Ucheb. pos. dlya studentov ekonomicheskix napravleniy i spetsialnostey VUZov, – 3-izd. -M.: Finansi i statistika, 2001.
21. Kratko I.G. Mejdunarodnoe predprinimatelstvo. Ucheb. pos. -M.: 2001.
22. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uch.pos. pod red. Akopovoy E.S. -M.: Feniks, 2001.
23. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Uch. pod red. Liventseva N.N. - M.: Finansi i statistika, 2001.
24. Mejdunarodnie finansovie otnosheniya. Uch. pod red. akad. Senchagova A. G. -M.: Finansi i statistika, 2001.
25. Preobrazovanie finansovoy sistemi v Respublike Kazaxstan. Vashington-Almati-Manila, 1997.
26. Postnikov S.L. Mirovaya ekonomika i ekonomicheskoe polojenie Rossii. Statisticheskij sbornik. -M.: Dialog, 2001.
27. Strigin A.V. Mirovaya ekonomika – M.: Ekzamen, 2001.
28. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya. -M.: Finansi i statistika, 1996.
29. Teylor A.X., Poukoka M.A. Finansovoe planirovanie i kontrol. Vtoroe izdanie. -M.: INFRA-M, 1999.
30. Finansi: Uch. dlya vuzov. Pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy, B.M. Sabanti. -M.: Yurayt, 2000.
31. Finansi. Pod red. D.e.n. Kovalevoy A. M., Rekomendovano Gos.kom. Rossiyskoy federatsii v kachestve uchebnogo posobiya dlya studentov ekonomicheskix napravleniy i spetsialnostey VUZov, -M.: Finansi i statistika, 1996.
32. Ernst Djons. Delovie finansi. -M.: Dialog, 1998.
33. Chetirkin E.M. Finansoviy analiz proizvodstvennix investitsiy. 2 – e izd. ispr. i pererab. –M.: Delo, 2001.
34. Yurtseva T.V. Ekonomika nekommercheskix organizatsiy. -M.: Yurist, 2002.
35. Ponomarenko V. Finansi obshchestvennogo sektora Rossii. -M.: Ekonomika, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Kostyunina G.M. Mejdunarodnaya praktika regulirovaniya inostrannix investitsiy. Ucheb.pos. –M.: 2001.
2. Gerasimenko G.P., Markaryan E.A., Finansoviy analiz, Uchebnoe posobie, -M.: PRIOR 1996.
3. Dj. K. Van Xorn Osnovi upravleniya finansami, Pod red. Prof. Sokolova Ya.V., -M.: Finansi i statistika, 1996.

4. Kovalev V.V., Finansoviy analiz - upravlenie kapitalom, vibor investitsiy, analiz otchetnosti. -M.: Finansi i statistika, 1996 g.
5. Kratko I.G. Mejdunarodnaya predprinimatelstvo. Ucheb. pos. -M.: 2001.
6. Kurochkin D.N. Evro - novaya valyuta Starogo Soveta. -M.: 2000.
7. Kutafin O.E., Fadeev V.I. Munitsipalnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. -M.: Yurist, 1997.
8. Lavrov A. Problema stanovleniya i razvitiya byudjetnogo federalizma v Rossii. Stanovlenie rinochnoy ekonomiki v Rossii: Sb.nauch.proektov. Vip. 10. -M., 1997.
9. Larionov I. K. O nekotorykh voprosakh sotsialno-ekonomicheskoy strategii i finansovoy politiki. "Finansi", 1997.
10. Livshits A. Ya. Osnovnie orientiri finansovoy politiki, //"Finansi", 1997.
11. Lobodenko N. V. Audit i diagnostika bankrotstva// "Finansi", 1997.
12. Mirovaya ekonomika. Ekonomika zarubejnykh stran. Pod. red. prof. V.P. Kolesova i dr. -M.: Flinta, 2001.
13. Petrov Yu., Ozdorovlenie finansovoy sistemi i normativnie metodi gosudarstvennogo regulirovaniya ekonomiki., //"Rossiyskiy ekonomicheskii jurnal", "Finansi i statistika", 1997.
14. Pogorletskiy A.I. Ekonomika i ekonomicheskaya politika Germanii v XX veke. -SPb.: 2001.
15. Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy misli i politiki nalogov. Ucheb. pos. -M.: INFRA-M, 1996.
16. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya. -M.: Finansi i statistika, 1996.
17. Shiryayev R. Finansovoe sostoyanie promishlennosti. -M.: Ekonomist, 1997.
18. Erik Xelfert Texnika finansovogo analiza. Per. s angl. Pod red. Belix L. P. 2-izd. -M.: Audit, YuNITI, 2000.
19. Boyd J. Inflation. "Growth and Central Banks Theory and Evidence", 1996. Policy Research Working Paper 1575. The World Bank. Washington. D. C.
20. EBKD transition Report 1998. Financial sector in transition. European Bank for Reconstruction and Development. London 1998.
21. Hermes N. Lesnik R. Financial System Development in Transition Economies. Journal of Banking and Finance. Vol. 24. pp. 507-524.
22. Moyer C. Financial System. Corporate Finance and Economic Development, in RA Hubbard (ed) Asymmetric information. Corporate Finance and investment. A National Bureau of Economic Research 1990 Research Project Report, University of Chicago Press. Chicago. PP. 307-322.

23. Steinherr A. An innovator Package for Financial Sector Reforms in Eastern European Countries. Journal of Banking and Finance 17 PP. 1033-1057.
24. Mingaleva Zh About the experience of enterprise's strategies in crises situation. All Russian scientific conference "Economics" theory methodology, trends of development: S-Petersburg 1998.

Tkacheva S Innovation Activities Infrastructure, treated as Multi Agent System The 11th Annual Meeting of the Japan Association for Evolutionary Economics. JAFEE 2000 Tokyo Japan 2000. 136-141.